

YOSHLAR ORASIDA VIRTUAL OLAMGA QARAMLIKNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

*Eshmurodova Dilbar Suvonqulovna
 Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani
 MMTB ga qarashli 13-umumiy o'rta
 ta'lim maktabi amaliyotchi psixolog*

Annotatsiya: Hozirgi davrda internet hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. U faqat kattalar uchun emas, balki maktab o'quvchilari uchun ham katta ahamiyatga ega. Dars tayyorlashda, yangi ma'lumotlarni izlashda va hatto bo'sh vaqtimizni o'tkazishda internet asosiy yordamchilarimizdan biriga aylangan. Lekin har bir narsa kabi internetning ham foydali va zararli tomonlari bor. Internetni qanday ishlatishimiz bizning darslarimizga, bilimlarimizga va sog'lig'imizga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Intenet, Arpanet, global, lokal, qaramlik, makon, virtual olam.

KIRISH

Internet [lot. Inter-aro va net (work) - tarmoq] - katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butun jahon kompyuter tizimi. Unda geografik o'rni, zamon va makondan qat'iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o'zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, internet ildizi 50-yillarga borib taqaladi. Xammasi 1949-yilda sobiq ittifoq atom bombasini sinovdan o'tkazilganida boshlangandi. 1969 yil bo'lajak internetning ilk ko'rinishi ARPANET vujudga keladi. Natijada har bir Amerikalik o'quvchi internet bu: "Pentagon jahonga taqdim etgan XX-asrning ajoyib ixtirosi" ekanligi haqida xabar topgandi. Xullas, birlashgan internet tarmog'i 1980-yildan boshlab vujudga kelib internet texnologiyasiga o'tish 1983-yilning yanvar oyida o'z nihoyasiga yetadi. Shu vaqtning o'zida muhofaza kommunikatsiya agentligi ARPANETni ikki mustaqil tarmoqqa bo'lib yuboradi. Ularning biri keyingi tadqiqotlar uchun ikkinchisi esa harbiy aloqalar uchun edi. Tadqiqot tarmog'inining nomi ARPANET bo'lib qoladi.

Bugungi kunda internetsiz hayotni tasavvur etib bo'lmaydi. Har kuni dunyoning turli sodir bo'layotgan yangiliklar va turli xabarlarni bizga beminnat yetkazib turgan va buning uchun bizdan faqatgina e'tibor talab qilayotgan internet O'zbekistonga kirib kelganiga 17 yildan oshdi. O'tgan yilgi ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda internetdan foydalanuvchilar soni 3 milliardga yetgan. O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining ma'lumotiga ko'ra, hozirgi kunda mamlakatimizda esa internet foydalanuvchilari soni 8 milliondan ortgan. Internet – XXI asr texnologiyasi.

XXI asrni “kompyuter asri” deb ham atasa bo‘ladi. Tanganing ikki tomoni bo‘lgani kabi internetning ham ijobjiy ham salbiy jihatlari mavjud. Ammo shuni ham unutmasligimiz lozimki, tanganing u yoki bu tomonini ochish insonlarning, ya’ni bizning qo‘limizda. Shunday ekan, nima uchun endi biz internetni salbiy deya baholashimiz kerak? Axir inson qay maqsadda undan foydalansa, shunga yarasha javob oladi-da

2005- yil Vashington universiteti professori Fredrik Zimmerman 4 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan 1266 ta bolalar o‘rtasida tadqiqot o‘tkazib shunday xulosaga keldi: Aslida bolakaydagi jizzakilik, jaxldorlik, betkachoparlik holati vaxshiy televideo, kompyuter o‘yinlari ta’sirida emas, ota-onaning beparvoligi sababli kelib chiqar ekan. Bola o‘ziga shu tarzda e’tibor tortishga urinadi. Ota- onasidan topa olmagan mehrni u albatta, mitti qalb – “temir quti” lardan izlaydi. Shunday ekan, bu “temir quti” ning salbiy emas, ijobjiy tomonidan ko‘proq foydalanish, tanqid ostiga olishdan ko‘ra salbiylikka qarshi immunitet hosil qilish lozim. Chunki, immunitet qanchalik mustahkam bo‘lsa, zararlanish ham shuncha kam kuzatiladi.

Keling, internetning ijobjiy tomonlari haqida fikr yuritamiz. Birinchidan, internet orqali turli bepul kurslarga a’zo bo‘lish, masofaviy ta’lim imkonini mavjud. Ikkinchidan, uyda turib istagan narsangizga buyurtma berish imkonini mavjud. Yana eng muhimlaridan biri, qaynoq yangiliklardan boxabar bo‘lib turish. Umuman olganda, to‘g‘ri foydalanilsa internet yoshlari ongini buzishdan ko‘ra, uni shakllantirishga xizmat qilmoqda



Hozirgi kunda keng tarqalgan insonlarga foya keltirayotgan saytlardan biri internet magazinlardir.

Mamlakatimizda doimo internetdan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda, shuning uchun ham zamonaviy dunyoda, korxonalar muvafaqiyati uchun

hozirgi vaqtda savdosotiqni tarmoq orqali amalga oshirishni ma'qul ko'rmoqdalar. Internet magazinlar korxona sarf-xarajatlarini kamytiradi, masalan odatdagagi magazinlarga qarab chiqadigan bo'lsak xaridorlarning xarid uchun to'lovni amalga oshirishda bitta sotuvchiga to'lash ancha qiyinchilik tug'diradi internet magazinlarda esa bitta konsultantning o'zi yetarli. Shunday ekan, elektron tarzdagi savdo –sotiq korxonalarining samarador ishlashini ta'minlaydi. Internet –magazin odatiy magazinlarga qaraganda quyidagi imkoniyatlarni beradi:

-Internet-magazinlar kecha-kunduz va har kuni, tushlikda tanaffuzsiz, dam olish kunlarsiz va bayram kunlarida ham ishlaydi;

-xohlagan xaridor, yerning xohlagan joyida turib magazindagi mahsulotlarni xarid qilish imkoniyatiga ega;

– internet-magazin sotuvchi-konsultant ijarga olish kerak emas, xaridor mahsulot haqida batafsil ma'lumot olish huquqiga ega.

-Internet-magazin maydon bilan chegaralanmaydi. Uni ko'p miqdordagi mahsulot va ko'p miqdorda gi xizmatlar bilan kengaytirish mumkin;

-Internet-magazin yaratish odatdagagi magazinlardan ko'ra oz muddat va kam sarmoya sarflanadi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lмаган juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tish imkonini beradi:

1) Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lim olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lim kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelsa, axborotlar bilimlar to'plash jarayonining mazmunli jihatini ta'minlash uchun kerak bo'ladi. Internet va "Butun jahon tarmog'i" barcha ijtimoiy qatlAMDAGI insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Internet tarmog'i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko'plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta'lim tizimida qayta aloqani ta'minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar – saytlar ta'lim tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

XULOSA

Internetning ko'plab afzalliklari mavjud: Internet - bu ma'lumotlarning ajoyib ombori. Har bir inson o'z resurslariga murojaat qilishi va o'z savoliga javob topishi mumkin. Entsiklopediyalar va ma'lumotnomalar uzoq o'tmishda. Endi har bir savol uchun javobni Internetdan topishingiz mumkin. Muloqot uchun deyarli cheksiz imkoniyatlar. Inson ijtimoiy tarmoqlarda, xabarchilarda muloqot qilishi, bir xil qiziqishdagi do'stlarni topishi mumkin. O'smir hayotidagi Internet sizning ichki dunyomizni boshqalar bilan bo'lishishning eng muhim usuli bo'ldi. Internetda siz mutaxassis bilan maslahatlashingiz, fikringizni bildirishingiz va muloqot qilishingiz mumkin. Siz musiqa tinglash, rasmlarni ko'rish, o'yin o'ynashdan zavqlanishingiz mumkin. Shuningdek, siz ish topishingiz mumkin. Dizaynerlar, dasturchilar va boshqa ko'plab odamlar Internetda pul ishslash imkoniyatiga ega. Siz o'zingizning mahsulotingizni Internetda reklama qilishingiz mumkin. Internet - bu biznesmenlar uchun o'z mahsulotlarini reklama qilish va yangi xaridorlarni topish uchun ajoyib joy. Shu bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud. Turli xil ma'lumotlarning nazoratsiz joylashuvi haqiqat ma'lumotlarini ishonchsiz ma'lumotlar bilan aralashtirib yuborishga olib keldi. Axborotni endi o'zlashtira boshlagan yoshlar uchun bu dunyo haqidagi buzuq g'oyalarga olib keladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda oddiy odamlar bilan bir qatorda firibgarlar, manyaklar va noqonuniy niyatli boshqa odamlar ham ishlaydi. Internet hayotimizdagi haqiqiy xavf manbaiga aylandi. Erkinlik sharoitida asotsial xarakterdagi saytlar ko'payib ketdi. Ularning xo'jayinlari firqalar, ekstremistik guruhlardir. Ular zo'ravonlik va tajovuzni targ'ib qiladilar. Ushbu guruhga bolaning psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan pornografik tarkibga ega saytlar kiradi. Izohlarning Internetda bepul joylashtirilishi odobsiz so'zlarning hamma joyda bo'lishiga olib keldi. Ko'rinish turgan anonimlik qasamyod qilish odatiy holga aylandi. O'yinlarning mavjudligi kompyuterga qaramlik kabi falokatga aylandi. Qimorga qaramlik giyohvandlikka o'xshaydi. "Yangi hayot" olish imkoniyati o'yinchilarga virtual hayot va haqiqat o'rtasidagi chegarani yo'q qilish uchun aylandi. Ijtimoiy tarmoqlarda fotosuratlarni joylashtirish Internetga qaramlikning eng xavfli turlaridan biriga aylandi. O'zining ahmoqligi tufayli kamdan-kam uchraydigan zarbani olishga urinayotgan o'spirinlar ko'pincha o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

- Chetty K., Wenwei L., Josie J., Shenglin B. Bridging The Digital Divide:
- Measuring Digital Literacy, 2017. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси . – Тошкент:
- “Ўзбекистон” НМИУ, 2021. – Б. 24. 3.Рақамли иқтисодиёт // <https://lex.uz/docs/5030957> 4. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 16 б.

4. "Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalarni o,,rni" M.To'rayev, S.T Aldasheva, I.T Aldashev - Results of National Scientific Research International, 2023
5. O,,quv jarayoniga media ta“limning integratsiyasi I.Aldashev - Scientific journal of the Fergana State University, 2023

